

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRA NUQTAI NAZARIDAN YANGI
O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM ISLOHOTLARI VA ZAMONAVIY
IMKONIYATLAR**

To‘rayev Ravshanbek Rustam o‘g‘li,

*Cyber University davlat universiteti yurispudensiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
ravshanbekto‘rayev@gmail.com*

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, zamonaviy imkoniyatlar va bu borada amalga oshirilayotgan qulayliklar tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** strategiya, islohot, raqamlashtirish, tadqiqot, salohiyat, oliygoh, zamonaviy mutaxassis, barkamol avlod.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются масштабные реформы, проводимые в системе высшего образования Республики Узбекистан, современные возможности и удобства, реализуемые в этой области.*

***Ключевые слова:** стратегия, реформа, цифровизация, исследования, потенциал, вуз, современный специалист, гармонично развитое поколение.*

***Abstract.** This article analyzes the large-scale reforms being carried out in the higher education system of the Republic of Uzbekistan, modern opportunities, and the conveniences being implemented in this regard.*

***Keywords:** strategy, reform, digitalization, research, potential, university, modern specialist, harmoniously developed generation.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda talim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda “Uchinchi Renessans” g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmonida xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi ishlab chiqilganligi asoslab berildi.

2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarida avvalo har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish maqsadida ta’lim tizimi islohotlariga e’tibor qaratildi [1]. Ayniqsa, oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash borasidagi vazifalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari

fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish, iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxonalar – oliygohlar - ilmiy tashkilotlar” klaster tizimini joriy etish, yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash tadbirlari ishlab chiqildi.

Ayniqsa, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, 30 ta oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, “Top-500” ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta‘lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, 10 ta oliy ta‘lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top-1000” oliy ta‘lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, 5 ta oliy ta‘lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish, qo‘shimcha 120 ming o‘rinli o‘quv binolari hamda 150 ming o‘rinli talabalar turar joylarini qurish, kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to‘ldirish va kutubxona fondini to‘liq raqamlashtirish kabi maqsadlar belgilab qo‘yildi va bu borada amaliy harakatlar qilinmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining tayanchi sifatida oliy ta‘lim islohotlariga katta e‘tibor qaratilib, yangi oliygohlar tashkil qilinmoqda.

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda mamlakatimizda tizimli va izchil ravishda olib borilayotgan ta‘lim sohasidagi islohotlar o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Universitetlarimiz akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi. Zamon talablariga moslashish hamda bugungi kun va kelajak uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga egadir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra hozirda respublikamizdagi mavjud oliy ta‘lim muassasalarining umumiy soni 207 tani tashkil qilib, shundan mulkchilik shakli bo‘yicha 101 ta davlat, 74 tasi nodavlat va 32 tasi xorijiy oliygohlardan iborat. OTMlarni tashkiliy turi bo‘yicha tahlil qilganda respublikadagi universitetlar soni 125 ta, institutlar 43 ta, filiallar 33 ta, Akademiyalar 5 ta, Konservatoriya 1 tani tashkil qiladi. Mazkur ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar 48486 nafarni, talabalar soni esa 1725019 tadan iborat [2]. Prezidentimizning 2025-yil 20-yanvardagi PQ-14-son qarori asosida axborotni himoyalash, axborot va kiberxavfsizlik, raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot, sun‘iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot-tahliliy tizimlarni yaratish, robototexnika va boshqa turdosh sohalar bo‘yicha kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan Cyber University davlat universiteti tashkil qilindi [3]. Mazkur oliygohdagi ta‘lim yo‘nalishlari orasida respublikada birinchilardan bo‘lib tashkil qilingan zamonaviy soha kiber huquq va raqamli kriminalistika yo‘nalishlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalishlar axborot

texnologiyalariga qiziqqan va ularni huquqiy jihatdan tartibga solishga intilgan yoshlar uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan axborot texnologiyalari bilan bog'liq huquqiy munosabatlar, kiberjinoyatlarning oldini olish va huquqiy javobgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda xalqaro kiberqonunchilik bo'yicha kompleks bilimlarni o'zlashtirish hamda raqamli qurilmalar va axborot tizimlari orqali jinoyat izlarini aniqlash, tahlil qilish va ularni sud-tergov jarayonlarida dalil sifatida qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadi [4; B.120-127].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish, reformatsion jarayonlar kechishi davomida jahonning yetakchi ta'lim tizimlari haqida bilish va ularning tajribasiga tayanib o'zimizning milliy ta'lim tizimini shakllantirish dolzarb masala sifatida davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bir davrda biz yoshlar prezidentimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ilm-ma'rifat va aql-zakovaga tayangan holda vatanimizni dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoriga olib chiqishga astoyidil harakat qilmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni // lex.uz
2. <https://stat.edu.uz/>
3. <https://lex.uz/docs/>
4. Ibragimov, M. (2021). "Raqamli ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi. istiqbollar va muammolar." O'zbekiston ta'lim tizimi. yangiliklar va imkoniyatlar, 5(3), 120-127.